

BARCHA UYGA SOVG'A BILAN QAYTDI



Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni Yozyovonda har doim o'zgacha bir shukuh, ko'tarinkilik bilan nishonlanadi.

Jurnalist va faxriylarni kasb bayrami bilan tabriklash uchun tuman hokimi Dilshodjon Djalilov, tuman prokurori Ilhomjon Xodjayev, hokim o'rinnbosarlari va qator hokimiyat vakillari „Markaziy Farg'ona“ gazetasi tahririyatiga tashrif buyurdilar.

Tuman hokimi va prokurori hozirgi tezkor paytda gazeta va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va bunda jurnalistlarning roli beqiyosligini gapirdilar. Tumanimizda ro'y berayotgan voqeа-hodisalarни xolislik bilan yoritish borasida Yozyovon jurnalistlari faol ekanliklarini ta'kidlab o'tdilar. Tumanimizda olib borilayotgan imlohotlarni butun mamlakatga ovoza qilib, Yozyovonni tanitayotganliklari uchun minnatdorchilik bildirishdi. Gazetaning 70 yilligini katta tantana bilan nishonlanishini aytdilar. Shuning bilan birga kelayotgan Qurbon hayiti bilan tabriklab, kelgusi ishlarga muvaffaqiyatlar tilashdi.

“Markaziy Farg'ona” gazetasi bosh muharriri Azimjon Xudoyqulov Yozyovon jurnalistlari uchun qulay sharoitlar yaratib bergani uchun muassisiga minnatdorchilik bildirdi.

Sektor rahbarlari gazeta xodimlari, matbuot faxriylarining barchalariga tuman hokimligining qimmatbaho sovg'alarini topshirdilar. Yozyovonlik jurnalistlar, faxriylar uylariga bayram sovg'alari bilan kirib borishadi.

Barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan Qurbon hayiti ayyomi bilan tabriklaymiz. Oilangizga tinchlik-xotirjamlik, dasturxoningizdan fayzu baraka arimasligini tilaymiz.

Yozyovon tumani hokimligi axborot xizmati.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-07-03 18:09:26